

O'ZBEKI TILI LEKSIKASIDA NEOLOGIZMLAR. NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Termiz davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Jo'ranazarova Dilnura

Annotatsiya: Maqolada “neologizm” tushunchasiga berilgan ta’rifga yondashuvlar o’rganilgan. So‘nggi yillarda ilm-fan, madaniyat, texnika va sanoatning rivojlanishi bilan o‘zbek tilida ham yangi ob’ektlar, hodisa va tushunchalarga xizmat qiluvchi yangi so‘z va iboralar vujudga kelmoqda. Til birliklariga qo‘silib borgan neologizmlar vaqt o‘tishi bilan leksikanga kiritilib, lug‘atlardan o‘rin olmoqda. Maqolada neologizmlarning hosil bo‘lishi, ayniqsa murakkab va davr rivojlanish jarayoni vositasidagi yasalishiga oid masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: neologizm, yangi so‘zlar, terminlar, atamalar, leksik birlik, til manbalari, neologizmdan foydalanish, so‘z birliklari.

Nutqning aniq va ravshan bo‘lishi, avvalo, so‘zdan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. So‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlata bilish uchun uning leksik ma’nosini anglash zarur. So‘zning leksik ma’nosini tushunmaslik uni xato qo‘llashga olib keladi. Buyuk so‘z san’atkorlari so‘z xususida shunday deyishgan: «So‘z barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir» yoki «Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekansiz, bunday tilimizdan emas, balki uqishiz mahoratimizdan guvohlik sinamog‘i kerak» va hokazo.

So‘z san’atkorlari e’tiborini tilning ohangiga ham qaratib, uslub va ifodaning sodda bo‘lishini, nutqda fikriy mujmallikka yo‘l qo‘ymaslikni ta’kid etadilar. Ulug‘ so‘z san’atkor Alisher Navoiy tilga e’tibor – elga e’tibor, deb tilning ahamiyatini alohida ta’kidlagan edi. Bobur o‘g‘li Xumoyunga yozgan maktubida ona tilining muhimligini qayd etgan holda: «Agar muroding g‘olib bo‘lsin desang, avvalo, tilni isloq qil», deya nasihat qilgan.

Inson tafakkurining eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g‘oyat otashin hislar, agar ular so‘z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun

noma'lumligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash vositasi. Binobarin, agar fikr aniq vositasiz ifodalangan bo'lsa, agar u til vositasi bilan ro'yobga chiqqan bo'lsa, agar u, faylasuflar tili bilan aytganda, - boshqalarga bevosita borib etsa, aniqlashtirilishiga fikr bo'la oladi. Leksika muttasil o'sish va rivojlanishda bo'lib, unda doim yangi so'zlar paydo bo'ladi, tildagi mavjud so'zlarning ba'zilari asta-sekin eskirib boradi. Eskilik otenkasiga ega bo'lgan so'zlar tilida birmuncha vaqtga qadar ishlatiladi. Shunga ko'ra umumxalq tili lug'at boyligini ikki katta guruhga ajratish mumkin: faol so'zlar va nofaol so'zlar. Faol so'zlar guruhiga ma'nosi shu tilida gaplashuvchi barcha kishilarga tushunarli va kundalik turmushda qo'llanib odat bo'lib qolgan so'zlar kiradi. Bu guruhdagi so'zlar eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi.

Nofaol so'zlar guruhiga eskilik bo'yog'i aniq bilinib turadigan va ko'pchilikka ma'lum bo'limgan so'zlar kiradi. Bunday so'zlar kundalik aloqada kamroq ishlatiladi. Nofaol so'zlar ikki guruhga bo'linadi: qadimgi so'zlar (arxaizmlar, istorizmlar) va yangi paydo bo'lgan so'zlar (neologizmlar). Arxaizm va istorizmlarning uslubiy vazifasi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar arxaizm yoki arxaik so'zlar deb yuritiladi. Masalan: gisu(soch), payg'om(xabar) kabi so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda yangicha so'zlar bo'lib, ularning o'rnini yangi tushunchalar egallagan. Leksikaning tarixiy hodisasining ko'rinishlari:yorg'ichoq(kuchuk), falakiyot (astronomiya) ;

So'zning ma'nolaridan biri arxaiklashadi. Bu semantik arxaizm deyiladi. Masalan: tarjimon so'zining «tilmoch» ma'nosi arxaiklashgan Shuningdek, qimmat so'zining «qo'iga tushirilgan narsa, o'lja» ma'nolari arxaiklashgan, u qulay, narxi yuqori ma'nosida ishlatiladi.

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdagi yangi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so'z bo'lib, neos – «yangi» degan ma'noni bildiradi. Neologizm yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: agitatsiya, barber, batl, chekboks, dedlayn, filler, galaktostaz, ivent, kognitiv, koturn, kovorking, lavash, lokdaun, media,

netiket , oversayz,podcast, prank, repost, retvit, storis, kabi. Neologizmlar yangi paydo bo‘lgan payti, ishlatilish doirasiga ko‘ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmlarning ma’nosи tushunarli kasb etsa, xalq orasida ommaviylashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotadi va umumxalq so‘ziga aylanadi. Masalan: internet, kompyuter, televizor, kafe, kosmos, kosmonavt telegram, radio, va hokazo. Ba’zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatilish doirasi chegaralanib lexikadan bir oz o‘rin olishi mumkin. Demak, neologizm so‘z yoki so‘zning ma’nosи neologizm bo‘lishi mumkin. So‘z neologizmlar va leksik neologizm deb yuritiladi: smartfon, dasturlash va boshqa so‘zlardir. Bunday so‘zlar:

1. o‘zi butunlay yangi, hali o‘zlashib ketmagan so‘zlar;
2. ilgari mavjud bo‘lgan so‘z yasovchi qo‘sishimchalar bilan yasalgan yangi so‘zlar: selfibop, vayner va h. k
3. boshqa tildan kirib, hali umumxalq tiliga singib ketmagan yangi so‘zlar: birja, mega

Leksik ma’nolardan biri yangi bo‘lsa, semantik neologizm deb yuritiladi. Masalan: marketing, savdo. O‘zlikni anglashda tilning roli muhimdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu haqda shunday degan edilar: "... ajdodlardan o‘tib kelayotgan ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirishga alohida e’tibor berishimiz zarur". Shu boisdan aytish joizki, o‘zbek tilini ilmiy jihatdan rivojlantirish, chuqur o‘rganish, yanada boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Fan hamisha rivojlanish va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko‘rilmagan darajada jadallahashdi. Agar hozirgi dunyoga nazar tashlarsak, bizni o‘rab turgan kurrali zamon zamonaviy texnologiyalar orqali rivojlanayotganiga guvoh bo‘lamiz. Boshqa tarafdan esa davlatlar o‘rtasidagi kuchli geosiyosat ta’siri mashhurlashuv jarayonining jiddiy tus olishiga sabab bo‘lmoqda. Ayni damda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning

kengayishi natijasida tillararo so‘zlarning biridan boshqasiga o‘tishi jadallahashmoqda. Bu jarayon ham bevosita o‘zbek tiliga ta’sir qilmoqda va o‘zbek tili leksikasi o‘zlashma so‘zlar – neologizmlar hisobiga boyishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Ona tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/M.Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva;O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. -T. :"IQTISOD- MOLIYA", 2007.276 b.
- 2 . Ona tilidan ma'ruzalar to'plami/N.Erkaboyeva.-T.: " Yosh kuch", 2021.688 bet
- 3.Karimov.I.A.-"Yuksak ma'naviy- yengilmas kuch".-Toshkent.Ma'naviyat, 2008.B.-87
- 4.Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3.– №. 12. – C. 336-340.
5. Muminova Umida Qarshiyevna . Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013. P. 389-394
<https://univerpubl.com/index.php/synergy>
6. Umida Muminova Qarshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug’otit turk” asarining pedagogika tarixida tutgan o’rni// Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnal. 6-son 2-to’plam, yanvar 2023, 332-335 B
7. Umida Karshievna Muminova. Phytonyms in the work "Mahbub ul-qulub". International scientific and practical conference “Trends of modern science and practice” Ankara, Turkey 2023.P 46-50
8. Sharsova Nilufar Ilhom qizi, Muminova Umida Karshiyevna. Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 164–168. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1033>
9. Chorshanbiyeva Ra’no, Muminova Umida Karshiyevna, Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School , Web of Semantic:

Universal Journal on Innovative Education: Vol. 2 No. 4 (2023): Web of Semantic:
Universal Journal on Innovative Education

10. Davlatmamatovna, H. G. Qarshiyevna, M. U.. (2023). Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 125–128. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1006>